

O‘ZBEK, INGLIZ VA RUS TILIDAGI SALOMATLIK BILAN BOG‘LIQ MAQOLLAR SEMANTIKASI

*N. Abdullayeva*¹

Annotatsiya:

Tilshunoslikda paremiologiya alohida o‘rganiladigan yo‘nalish sifatida ajratilgan bo‘lib, unda xalq og‘zaki ijodiga mansub bo‘lgan maqol va matallar turli yo‘nalishlarda tadqiq qilinadi. Maqolada esa ingliz, rus va o‘zbek tilidagi inson salomatligiga aloqador bo‘lgan maqollarni o‘rgangan manbalar semantik jihatdan tahlil qilinadi. Shuningdek, o‘zbek tilida mavjud salomatlik haqidagi maqollarning ma‘no-mundariyasi o‘zaro solishtirib, o‘rganib chiqiladi.

Kalit so‘zlar: ingliz, rus, o‘zbek maqollari, salomatlik, Mieder, Fialkova, ruhiy salomatlik, jismoniy salomatlik, so‘zlashish, sabr, mahorat, harakat, birdamlik, o‘zaro munosabat, g‘am, oziq-ovqat

doi: <https://doi.org/10.2024/t1589951>

KIRISH

Tilshunoslikda paremiologiya alohida yo‘nalishlardan biriga aylangan bo‘lib, unda xalq og‘zaki ijodiga mansub maqol va matallar o‘rganiladi. Maqolada tadqiq ostiga olingan kishi salomatligiga oid maqollar ingliz, rus va o‘zbek manbalarida qanday o‘rganilganligi va ularning mavzu turlari yoritish maqsad qilinadi. Ingliz va rus paremiologiyasini o‘rganish birmuncha ko‘proq rivojlangan bo‘lib, salomatlikka oid maqollar ham turli yo‘llar bilan tadqiq qilingan. Lekin o‘zbek tilida maqollarning turli lug‘atlari yaratilgan bo‘lsada, salomatlik alohida mavzu sifatida yetarlicha o‘rganilmagan.

Hozirgi kundagi global muammolardan biriga aylanayotgan inson salomatligi (noto‘g‘ri ovqatlanish, semizlik) ushbu mavzuni muhimlik darajasini oshiradi. Mavzuga doir maqollarni o‘rganib, tahlil qilish kishilarda salomatlik haqida dastlabki tushunchalarni paydo qilishga yordam beradi.

NATIJA VA MUHOKAMA

Salomatlik bilan bog‘liq maqollarning ma‘no-mundariyasi O‘zbek tilida xilma-xildir. Bunday xilma-xillikning sababi davrlar osha o‘zbek xalqining salomatlikka, sog‘lom turmush tarziga e‘tibor berib, turli davo-dorilarni o‘ylab topib, sinab, natijalarini tahlil qilganligida hamda kishilarning fahmu-farosati, e‘tiborining o‘tkirligidadir.

Salomatlik bilan bog‘liq maqollarni to inson paydo bo‘lishidan vafot etgunga qadar hayoti davomida uchraydigan har bir holatga nisbatan uchratish mumkin. Bundan tashqari salomatlik shaxsning nafaqat tashqi jismoniy balki ichki holati bilan ham uzviy bog‘liqligini ushbu maqollardan anglash mumkin.

¹ *Abdullayeva Nozima Anvarxonovna, Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti tayanch doktoranti, Toshkent, O‘zbekiston*

Inson salomatligi bilan bog'liq paremlar turli xalqlarda turlicha o'rganilgan. Asli olmon millatiga mansub bo'lgan Vermont universiteti professori Uolfgang Mieder Modern Philology jurnali 32-sonida English medical proverbs maqolasida nashr ettiradi[1]. Mieder maqolasida salomatlik bilan bevosita va bilvosita maqollar borligini aytib, bevosita salomatlik yoki tibbiyotga oid maqollar ustida atroficha to'xtalib o'tadi.

Mieder o'zining "English Medical Proverbs" maqolasida meditsinaga oid maqollarni bir necha mavzularga ajratib, tarixiy jihatdan izohlab o'tadi. Ulardan fiziologik holat, kasallik, ruhiy holat, ovqatlanish, ochlik, bolalik, yaralar, haqiqiy tibbiy ma'nodagi maqollar, to'g'ri ovqatlanish, ochko'zlik, ovqatlar, meva(olma), tibbiyotga oid kasblar, ob- havo, uyqu, turmush qurish, sanitariya, geografik otlar ishtirokidagi maqollar, xarakter, bid'atlar, tashqi ko'rinish, begunohlik, fiziologik kamchiliklar, alkogol iste'moli, jins, ijtimoiy kasalliklar, o'lim mavzusiga oid maqollar sanab o'tiladi. Olim maqolasini paragraflarga ajratgan holda har bir mavzuga bir va undan ortiq maqolni misol qilib, izohlab, paydo bo'lgan davrini ham aytib o'tadi. Uning bu uslubda yozgan maqolasi o'quvchida ham maqol ma'nosi ham kelib chiqish davri va sababi haqida ma'lumotga ega bo'lishiga yordam beradi.

Ruhiy salomatlikka oid maqollar juda kam deb, Age breeds aches (Yos og'riqlarni oziqlantiradi), A clear conscience can bear any trouble (Tiniq es-xush xohlagan muammoga chidashi mumkin), An evil conscience bricks many a man's neck (Yomon ruhiyat kishi bo'ynini bir necha bor sindiradi) kabi maqollarni keltiradi. O'n yettinchi asrga oid ochlik va ovqatlanish haqida maqollarni sanab o'tar ekan, ularda Jahon urishlariga oidlari (An army marches on its stomach- Armiya oshqozoni bilan saf tortadi|yuradi) borligini ham aytib o'tadi. Uning maqolasida berilgan ayrim maqollar farzand tug'ilishi va bola tarbiyasi, o'zini tutishi kabi ma'nolarga ham ega. Masalan: A broken leg (an illegitimate child) is not healed by a silver stocking ya'ni singan oyoqni kumush oyoq kiyim davolamaydi (tarbiyasiz bola). Bola va uning fel- atvori haqidagi maqollar juda kam deb: To a child all weather is cold (Bola uchun barcha ob-havo sovuq), A burnt child dreads the fire (Kuygan bola olovdan qorqadi) kabi ikkita maqolni misol qilib keltiradi. Tibbiyotga aloqador, aniq tibbiy ma'lumotga ega bo'lgan maqollar ham umumiy ham spesifik ma'noga egaligini aytadi. He that bewails himself hath the cure in his hands (O'zini asraganni qo'lida davo-chorasi bo'ladi) uning qarama- qarshisi bo'lgan Care is no cure (G'amxo'rlik davo emas) maqoli tibbiy maslahatni ifodalaydi. Tibbiyotga oid maqollardan eng keng va ko'p tarqalgani bu diyeta - to'g'ri ovqatlanish haqidagilari ekanligini aytadi. Ulardan eng mashxuri: After dinner sit awhile, after supper walk a mile (Tushlikdan so'ng biroz o'tir, kechki ovqatdan so'ng biroz yur) maqolidir. Mieder ingliz folklorida meditsina va salomatlikka oid maqollar xayratlanarli darajada katta ulushga ega va har bir maqol o'ziga mos bo'lgan guruhlarni tashkil etadi, deb maqolasini yakunlaydi. Maqola tibbiyotga oid maqollar haqida umumlashtiruvchi ma'noga ega. Unda maqollar izohi hamda paydo bo'lgan asri muallif tomonidan aniqlanib, aytib o'tiladi.

Salomatlikka oid maqollarni biz nafaqat ingliz balki ko'plab boshqa xalqlar hayotida ham uchratish ravshan bo'lgan holda rus tilida salomatlikka oid maqollar to'plamini tuzgan Fialkovaning lug'ati ko'rib chiqiladi. Folklorist Larisa Fialkova otasi Lev Fialkov (doktor) yordamida "Narodi mira o jizni i smerti, zdorovy e boleznyax, bolnix i vrachax poslovitsi i pogovorki" (Xayfa 2009) lug'atida[2] inson hayoti va

salomatligiga aloqador bo'lgan maqol va matallarni Hayot, O'lim, Yosh, Salomatlik, Kasallik, Vrachlar, Bemor, Davo-dori, Tush va tush ko'rish, Alkogol kabi o'nta guruhga ajratadi va shuningdek, har bir guruh kichik mavzularga taqsimlanadi (lekin maqollar izohlari berilmagan). Bundan ko'rinib turibdiki, salomatlik har bir xalq hayotida eng muhim mavzulardan biri bo'lib, asrlar davomida maqollarda o'z aksini topgan. Fialkova lug'atning kirish qismida maqollar xalq og'zaki ijodining bir turi sifatida aholining savodsiz va savodli kishilari orasida bir xilda keng tarqalgani, ular dunyoga falsafiy nuqtai nazardan qarashni bildirishni aytib o'tadi. Uning ta'kidlashicha maqol va matallarning ko'pchiligi tibbiyotga aloqador mavzulardadir. Fialkova o'zining va otasining bir necha yillar davomida izlanishlari natijasi bo'lgan kitobini alifbo tartibida emas, balki mavzulashtirilgan holatda taqdim etadi. Kitobning yuqorida qayd etilgan mavzulari maqollar shaklidagi kichik bo'limlarga ajratilib shu maqol mavzusiga oid turli xalqlar maqollari tartib bilan berib o'tiladi. Masalan, birinchi Jizn- Hayot bo'limi Poka ya jiv- smerti net, kogda smert pridet – menya ne budet sarlavhali maqoli bilan boshlanib, unga doir sakkizta rus, yaxudiy, arman, qoraqalpoq, latish va yapon xalq maqollari tartiblanadi. Lug'atning o'ziga xos jihatlaridan biri maqol mavzusi ham maqol bilan berilganligidadir. Shuningdek, bir sinonimik qatordagi maqol turli xalqlar maqollari bilan to'ldiriladi. Ma'lum bir aniq guruhga mansub bo'lmagan maqollarni Vne rubrik nomi ostida alohida berib o'tadi. Lug'atning sakkizinchi Lecheniye. Lekarstva bo'limining ikkinchi Luchshiye vrachi v mire – diyeta, svet, vozdux, dvijeniye i voda qismida turli xalqlarga oid sakson ikkita maqolni tartibga keltiradi. Ulardan o'zbeklarga oid deb, Podvijnost izbavlyayet ot mnogix zol maqolini, rus xalqining Kto sportom zanimayetsya, tot sili nabirayetsya, arablarga tegishli bo'lgan Dom v kotoriy solnse vxodit, doktoru mojno ne poseshat, inglizlarning Gorod dlya bogatstva, derevnya dlya zdorovya maqolini va yana boshqa turli xalqlar maqollarining aynan shu dori-darmon bo'limida sanab o'tadi. Lug'at yigirmadan ortiq xalqlarga tegishli bo'lgan bir ming yetti yuzdan ortiq maqol va matallarni o'z ichiga oladi. Lekin bu son bir xalqqa oid bo'lgan barcha tibbiyot va salomatlik haqidagi maqollarni qamrab olmaydi. Lug'at tibbiyot va salomatlikka oid butun dunyoda keng tarqalgan maqollarning umumlashmasidir. Masalan, o'zbek tilidagi uch yuzdan ortiq salomatlikka oid maqollarning o'ndan ortig'i berilgan, xolos.

Fialkovaning mazkur lug'ati yillar davomida otasi Lev Fialkov (vrach) yordamida yig'ilgan, alohida e'tibor bilan tartiblangan. Ham folklor ham meditsinaga aloqador shaxs tomonidan tuzilgan hamda turli xalqlar ijodiga mansub bo'lgan qimmatli manbadir.

Ingliz va rus tillari xalq og'zaki ijodida maqollar o'z o'rniga ega bo'lganligi bilan birga o'zbek xalqi adabiyotida va og'zaki nutqida ham maqollar ajralmas qismga aylangan. Maqollarni nutqda qo'llash nutq ta'sirchanligi va ma'nodorligini oshiradi. O'zbek tilshunosligida maqollarni yig'ib, to'plam holiga keltirgan ko'plab tilshunoslar mavjud. Bu kitoblar lug'at, izohli lug'at, sinonimik lug'at ko'rinishida yaratilgan. Shularning ayrimlaridan foydalangan holda o'zbek tilidagi salomatlikka oid maqollar maqolada alohida guruhlarga ajratib chiqiladi.

X.Berdiyorov, R.Rasulov muallifligidagi “O'zbek tilining paremiologik lug'ati”[3], Sh.Shomaqsudov, Sh.Shorahmedov hammuallifligidagi “Hikmatnoma” - o'zbek maqollarining izohli lug'ati[4], T.Mirzayev va boshqa mualliflar tomonidan to'plam holiga keltirilgan “O'zbek xalq maqollari” to'plamidagi[5] maqollardan foydalanib, o'zbek xalqidagi inson salomatligi bilan bog'liq maqollar soni jihatdan bir

qancha barobar ko'pligi aniqlandi. Yuqorida o'rganilgan ingliz va rus maqollar mavzularini o'zbek xalq maqollari bilan birmuncha boyitish mumkin. Ushbu lug'atlardan foydalanib, salomatlikka aloqador bo'lgan maqollarni quyidagi guruhlarga ajratish mumkin:

Ma'lumki, kishining tili yo o'ziga yoki o'zgalarga ham naf ham zarar keltirishi mumkin. Bu albatta ma'naviy yoki ruhiy zarardir. Shu holatni hisobga olgan holda so'zlashni ham kishi salomatligiga aloqador deb hisoblandi. Aytsam tilim kuyadi, aytmasam- dilim (so'zlash/sukut) maqoli hayotda shunday vaziyatlar bo'ladiki, bu holatni bironvga yetkazsa o'ziga jabr, yetkazmasa u shaxsga zarar keltirishi mumkin bo'lganda aytiladi.

Inson hayoti davomida turli ruhiy va jismoniy qiyinchiliklarga va kasalliklarga duch keladi. Kishi boshiga kulfat kelganda, kasal bo'lganda, har qanday holatda sabrli bo'lishga undovchi maqollarga misol qilib: Azobga bardosh kerak, hamisha yo'ldosh kerak (sabr-sabrsizlik) maqolini aytish mumkin.

Ayrim maqollar esa kishini ehtiyotkorlikka, ogohlikka chaqiradi. Asragan to'qlini bo'ri yemas ana shu kabi maqollardan bo'lib, unga qarama-qarshi Asragan ko'zga cho'p tushar (ehtiyotkorlik) maqoli asrash vaqtida yaxshi ortiqcha e'tibor esa qayta zarar yetishga sabab bo'lishi mumkinligini anglatadi. Aqlsiz bosh – oyoqqa zavol (aql-aqlsizlik) maqolidan salomatlikka xattoki, aqliy faoliyat ham ta'sir qilishi, aqlsizlik kishiga jabr bo'lishi ogohlantiriladi.

Badxat kotib ko'zni ko'r qilar (moxirlik) maqolida yaxshi yozishni bilmagan, husnixati tushunarli bo'lmagan kotib, harf teruvchi o'z o'quvchisining ko'ziga zarar keltirishi, ko'rish quvvatini pasayishiga sabab bo'lishi mumkin.

Odamzod nafaqat tashqi ta'sirlar balki ichki his-tuyg'ular orqali ham o'z sog'ligiga zarar yetkazishi mumkin. G'am-anduh shunday xissiyotlardan biridir. Beg'amlar quruq suvga semirar, Zang temirni kemirar, g'am odamni (g'am-alam) maqollari g'amsiz odam semirishi, g'amli odam esa o'zini g'am bilan kemirib, salomatligiga jiddiy havf solishini, siqilish oqibatida turli asab kasalliklariga chalinishini bildiradi.

Hayot harakat demakdir. Har bir ish albatta ma'lum bir darajadagi jismoniy harakatni talab qiladi. Chiniqqanga gard yuqmas, tiniqqanga dard maqoli (harakat-harakatsizlik) ana shunday maqollardan bo'lib, kishini harakatga, faol bo'lishga undaydi. Behuda chiranganlik - belni sindirar maqoli esa har kim kuchini to'g'ri baholay olgan holda harakat qilishi o'z salomatligini asrashga kafil bo'lishini anglatadi.

Bilmayin bosdim tikanni, tortadirman zahrini, bilmas erdim, bosmas erdim, tortmas erdim dardini (bilim- bilimsizlik) maqoli insonni bilish, bilim ko'p salbiy hodisalarni, o'z-o'ziga bilib-bilmay zarar yetkazib qo'yishini oldini olishga undaydi.

Insoniyat yaralibdiki, doim jamoa bo'lib, guruh, oila bo'lib istiqomat qiladi. Ba'zi bir maqollarda ana shu birlashib yashash hayot, tiriklik sharti sifatida ochib beriladi. Masalan: Birlik bor- tiriklik bor (birdamlik) maqolini aytish mumkin.

O'zbek xalqida bemor kishining oilasi, qo'ni-qo'shni, qarindoshlari, atrofdagilari g'amxo'rlik qilib, uni sog'ayib ketishiga astoydil harakat qiladilar. Xalqimizda esa bemor va atrofdagilarning o'zaro munosabatini aks ettiruvchi maqollar ham mavjud. Masalan: Bultur edi kuygani, endi keldingmi ko'rgani? (o'zaro

munosabat) maqoli bemor bo'lgan kishi holidan xabar olish o'z vaqtida amalga oshirishi kerakligini uqtiradi.

Kishilarni o'zaro bir-biriga nisbatan ijobiy yoki salbiy munosabatini ham sog'likka aloqasini borligini, do'sti, sevimli kishisi tabibdan ko'ra ko'proq bemorni tuzalib ketishiga sababchi bo'lishini quyidagi maqoldan anglash mumkin: Kasalni tabib emas, habib tuzatar. Salomatlik shunday muhimki, inson birovga yomonlik sog'inmasdan, o'ziga sog'lom bo'lishni duo-iltijo qilib so'rashi kerakligi Dushmaningga o'lim tilaguncha, o'zingga sog'lik/ umr tila! (do'st - dushman) maqolida do'st-dushman misolida ta'kidlanadi.

Kasallikka qarshi samarali davo choralardan biri yaxshi kayfiyat va kulgidir. Kishi yaxshi kayfiyat bilan har qanday og'ir dardni osonlik bilan yengishi mumkin. Kulgi shifo, dardga davo. Kulgi sog'likdan nishon (kulgi) maqollari kulgining salomat bo'lishdagi o'rnini bildiradi.

Har bir xalqning turli kasalliklarga qarshi xalq tabobati mavjud. Bu dori-darmonlar har bir millatning, dini, urf-odati, yashash tarzi, ob-havosi, geografik imkoniyatlaridan kelib chiqqan holda o'ylab topilgan va sinovlardan o'tkazilgan. O'zbek xalqida ham tabiiy giyohlardan foydalanib, turli kasalliklarga qarshi samarali vosita sifatida ishlatilib kelinadi. Andizli uyda ot o'lmas, iyirli/davoli uyda er o'lmas. Ermanalik uyda er o'lmas, darmonalik uyda dard bo'lmas (tabiiy giyohlar) shu kabi maqollardandir.

O'zbek xalqida turli oziq-ovqat maxsulotlarining kishi salomatligiga ta'sirini anglatuvchi maqollarni alohida guruhlariga ajratish mumkin. Ulardan asal haqida: Asal shirin ammo arisi chaqadi; meva-sabzavot: Bir anor - ming bemorga davo. Olma yeb og'rigandan, o'rik yeb o'lgan yaxshi; suv: Asad suvi- asal suvi (suv); non va non maxsulotlari: Nonning ikki kunligini ye, go'shtning bir kunligini; sut va sut maxsulotlari: Oqliq bor uyga, og'riq dorimas. Qimiz ichgan qarimas, qarisa ham dard ko'rmas kabi maqollar ushbu maxsulotlarning inson salomatligida o'z o'rniga egaligini bildiradi.

Bundan ko'rinib turibdiki, o'zbek, rus, ingliz tillarida inson salomatligiga oid maqollar mavzusi hayotdagi har jabhani qamrab oladi. Ayniqsa, o'zbek xalqiga xos o'ta ziyraklik va sinchikovlik maqollar mavzusi sonini yanada oshiradi. Bu yo'nalishda hali aniq manba yaratilmaganligi (lug'at, ilmiy ish) yana izlanishlar olib borilishini talab qiladi.

XULOSA

Tahlil qilingan manbalarga ko'ra ingliz, rus va o'zbek tillarida inson salomatligi bilan bog'liq maqollar ko'p jihatdan o'xshash bo'lganligiga qaramasdan, o'zbek xalq maqollari mavzusi yanada xilma-xilligi bilan o'ziga xoslikka ega. Bu turlilikni xalq dini, urf-odati, ijtimoiy-siyosiy hayoti va iqlimi, tibbiyotga aloqador shaxslarning izlanishlari natijasi bilan ham bog'lash mumkin.

Inson hayotidagi deyarli barcha holatlar, voqea-hodisalarning salomatlikka ta'siri haqida maqollardan albatta misol topish mumkinligi bu xalqning hayotida salomatlikning qanday muhim o'rin egallaganligini ko'rsatib beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

- [1]. Mieder. *English medical proverbs. – USA. Modern philology* N#32 -1934-

International Conference

THE DEVELOPMENT HISTORY AND MODERN SIGNIFICANCE OF INTERCULTURAL DIALOGUE

[2]. Larisa Fialkova, Lev Fialkov. "Narodi mira o jizni i smerti, zdorovye i boleznyax, bolnix i vrachax poslovitsi i pogovorki" lug'ati. Xayfa- 2009.

[3]. X.Berdiyurov, R.Rasulov. O'zbek tilining paremiologik lug'ati.- Toshkent, 1984.

[4]. Sh.Shorahmedov. Hikmatnoma - o'zbek maqollarining izohli lug'ati. - Toshkent, 1990.

[5]. T.Mirzayev. "O'zbek xalq maqollari" to'plami. – Toshkent, 1989

[6]. Erdanova, Z., & Eshdavlatova, A. (2024, April). Lexical classification of language units. In *Conference Proceedings: Fostering Your Research Spirit* (pp. 43-47).

[7]. Qizi, E. A. Z., & Qizi, X. Y. I. (2023). The background of the emergence of pragmalinguistics. *International Journal of Advance Scientific Research*, 3(06), 58-62.